

SINFDA CHET TILINI O‘QITISHDA FOYDALANADIGAN O‘YINLAR

Tilabova Gulnora Abdioxatovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Turizm fakulteti
nemis tili kafedrasи magistranti

E-Mail: gulnoratilabova734@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dots. **Z.I.Sanakulov**

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak nemis tili fani o‘qituvchilarining darsda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda o‘quvchilarining so‘z boyligini oshiruvchi so‘z o‘yinlari va grammatik o‘yinlar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy leksika, pedagogik terminlar, zanjirli mashqlar, maxsus mashqlar va amaliy o‘yinlar.

O‘yinlardan dars jarayonida boshqa ish shakllari bilan teng sharoitda va shunchaki vaqtı-vaqtı bilan o‘yin-kulgi sifatida foydalanmaslik kerak. Chunki o‘yinlar hali to‘liq foydalanimagan katta kommunikativ potentsialni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, nemis tilida so‘zlashuvchi o‘qituvchilar har doim ham darsga tayyor bo‘lmaydi. Agar o‘yinga asoslangan darsni chet tili darslarida tashkil qilsak, o‘quvchi uchun mo‘ljallangan o‘yinlar ba’zan juda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Biroq, hamisha o‘yin g‘oyasi diqqat markazida bo‘lib qolmasligi va o‘quv topshiriqlari bajarilmay qolmasligi kerak. Quyida o‘yin turlari keltiriladi:

O‘yin turlari: stol o‘yini, karta o‘yini, kvartet o‘yini, taxmin o‘yini, viktorina o‘yini, tafakkur o‘yini, harf o‘yini, so‘z o‘yini, sonlar o‘yini, rolli o‘yin.

O‘qituvchining savollari

| | |
|--|---|
| Yangi mavzuni o‘zlashtirish uchun bugun o‘yin o‘ynashni xohlaysizmi? | Um neue Thema zu gut verstehen, wollen sie heute mal ein Spiel spielen? |
| O‘yin o‘ynashni xohlaysizmi? | Habt Ihr Lust auf ein Spiel? |
| O‘yinga nima deysizlar? | Wie wär’s mit einem Spiel? |
| Biz musobaqa tashkil qilmoqchimiz | Wir wollen einen Wettbewerb veranstalten |

Bu jadvalda o‘qituvchi o‘quvchilarga “o‘yin tashkil qilish” borasidagi savol va takliflaridan variantlar keltirilgan:

O‘yin boshlash va qoidalarini tushuntirishda qo‘llanadigan leksika

| | |
|--|--|
| Ushbu o‘yinni 10 ta ishtirokchi bilan o‘ynash mumkin. | Dieses Spiel kann man mit 10 Teilnehmern spielen |
| Bitta o‘yinchи butun sinfga qarshi o‘ynaydi. | Ein einzelspieler spielt gegen die ganze Klasse |
| Hamma endi sherik izlashi kerak. | Jeder muss sich jetzt einen Partner suchen |
| Siz ikki, uch, to‘rttadan (guruhlarda) o‘ynaysiz. | Ihr spielt (in Gruppen) zu zweit, zu dritt, zu viert. |
| Biz har birida besh o‘yinchidan iborat guruuhlar, jamoalar tuzamiz. | Wir bilden Gruppen/Mannschaften mit je fünf Spielern |
| Biz bir-biriga qarama-qarshi o‘tirgan ikkita katta guruuhda o‘ynaymiz. | Wir spielen in zwei Großgruppen, die sich gegenübersetzen. |
| Biz sinfni o‘yinchilar soni bir xil bo‘lgan ikkita jamoaga ajratamiz. | Wir teilen die Klasse in zwei Mannschaften mit gleicher Spielerzahl ein. |

Yuqoridaagi gaplardan foydalanib, o‘yinni boshlab olamiz va o‘yin nomi va albatta o‘yin shartini aytib o‘tamiz. Quyida gapirish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi bir nechta o‘yinlar keltirilgan?

Frontal ta’lim - katta guruhlarda suhbat tashkil etish

Frontal ta’lim, ya’ni o‘qituvchi va butun guruh o‘rtasida dars olib borish, o‘quvchilar bilan individual ishlash juda ko‘p vaqt sarflanishiga olib keladi. Gapirishga, muloqotga vaqt ajratish lozim, chunki ko‘p o‘quvchilar umuman gapirmaydi. Lekin bu holat shunday davom etishini oldini olish maqsadida, nutqni rivojlantirish uchun albatta, quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin, masalan:

- a) zanjirli mashqlar
- b) so‘z va gaplar tuzish bo‘yicha maxsus mashqlar
- c) munozarali suhbat
- d) nutq o‘yinlari

Zanjirli mashqlar

Misol: Birinchi nemis tili darsida o‘qituvchi o‘zini tanishtiradi va darsni boshlaydi. Undan keyin barcha talabalar o‘z ismlarini aytib zanjirli mashq o‘yinini boshlaydilar. Biroq, zanjir mashqlari o‘quvchilarni faol jalb qilishi va tez bajarilishi kerak, aks holda ular zerikib qolishadi. Bunday zanjirli mashqlarning mazmuni, kengaytirilishi, jumla uzunligi yoki jumlalar soni oshirilishi mumkin.

Quyida ba'zi misollarni keltirib o'tamiz.

Siz zanjirni o'zingiz boshlaysiz, nafaqat ismingizni aytib, balki ...

-Siz qayerda yashaysiz

-Sevimli mashg'ulotingiz

-Sevimli yozuvchilaringiz

-Sevimli sport turi

Ich heiße Malika → Ich wohne in Taschkent → Mein Hobby ist Computerprogramme schreiben → Mein Lieblingsschriftsteller ist Tohir Malik → Ich spiele gern Tennis.

Agar o'quvchilar guruhi juda katta bo'lsa, zanjir mashqini darsda bajarish samarasiz bo'ladi, chunki o'quvchilarda zerikish paydo bo'ladi, agar bu o'yin yuqori tezlikda o'ynalsa ham birinchidan zerikarli bo'ladi, ikkinchidan ko'p vaqt talab qiladi. Shunday vaziyatlarda o'quvchilar guruhini bo'lib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Barcha nutq mashqlarida bo'lgani kabi, mavzuga taalluqli bo'lgan so'zlarni bilish muhim. Agar o'quvchilar sevimli mashg'ulot mavzusiga doir so'zlarni o'r ganmagan bo'lsa, ushbu mavzu doirasida zanjir mashqlardan foydalanishning foydasi yo'q.

So'zlar va jumlalar bo'yicha maxsus mashqlar va amaliy o'yinlar:

Bu holatda o'quvchilarni 2 yoki 4 ta katta guruhga bo'lish tavsiya etiladi. Keyin so'zlarni takrorlash yoki jumlalar tuzish uchun topshiriqlar beriladi. Agar vazifa mavjud til bilimini rivojlantirish uchun barcha guruhlarga bir xil berish uchun yetarli bo'lsa, keyin raqobatbardosh vaziyatni yaratish mumkin. Masalan:

- Qaysi guruh eng kam vaqt ichida mashq yoki o'yinni bajaradi?
- Qaysi guruh eng ko'p so'z va so'z birikmalarini topadi?
- Qaysi guruhda eng original yoki eng kulgili gap bor va hokazo.

Zanjir mashqlarida bo'lgani kabi bu mashq o'yinlari odatda yuqori sur'atning saqlanishini ta'minlashga asoslanadi. O'quvchi navbatni olganida davom ettira olmasa, yonidagi boshqa o'quvchi o'yinni davom ettirishi mumkin.

So'z mashqlari

1) Guruhlardagi otlarning birlik va ko'pligi: Har qanday rodga tegishli so'zlardan bir talaba birlikni, ikkinchisi ko'plikni aytadi. Agar ko'plik shakli ma'lum bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa, o'quvchi keyingi o'quvchini chaqiradi. Bunda to'g'rinish imkonibor. Eng to'g'ri birlik yoki ko'plik shakllarini aytgan guruh g'olib guruh hisoblanadi.

2) ABC so'zları: alifbo tartibida har bir talaba nemischa so'zining bittasini aytadi. Guruhga so'zni aytish uchun bir necha sekund vaqt beriladi. Shu tariqa antonym, sinonim so'zlarni ham aytish mumkin. Masalan:

| | |
|----------------------------|--------------------------|
| 1-o‘quvchi: issiq (heiß) | 2-o‘quvchi: sovuq (kalt) |
| 3-o‘quvchi: kichik (klein) | 4-o‘quvchi: katta (groß) |
| 5-o‘quvchi: yangi (neu) | 6-o‘quvchi: eski (alt) |

Albatta, har bir guruhgaga ma'lum bir ballni to'plash uchun huquq berilishi kerak, yana bir jihat, guruhlarning bir-biriga qarshi o'ynashiga ruxsat berilganda, vaqt berishni ham unutmaslik lozim.

3) Bir so‘zdan yangi so‘z hosil qilish

Guruh o‘yini: Qaysi guruh 20 ta so‘zni tezroq topa oladi? Boshqa so‘zning harfini hosil qilishi mumkin, masalan. **R e c h t s c h r e i b r e f o r m:** Recht, Schreiber, Reform, Form, er, echt, Eiche, Friese, frei, frech, bei, bereit, beim, Chemie, Ehe, Eimer, Reis, Eis, Schrift, Ei usw. Yoki guruhlarga qaysi guruh 5 yoki 10 daqiqada ko‘proq so‘z topadi deb vaqt belgilash kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yuqorida keltirilgan o‘yinlar va mashqli o‘yinlar nafaqat so‘z boyligini rivojlantiruvchi, balki so‘zlashish va grammatik bilimlarni ham mukammal o‘zlashtirishga yordam beradi. Darsda o‘quvchilarni bir xillikdan saqlagan holda turli xil metodlardan foydalanib, mavzularni mustahkamlashni va o‘quvchilarni rag‘batlantirishni, sinf xonasida chet tili muhitini yaratishni har bir nemis tili fani o‘qituvchisi o‘z oldiga maqsad qilib olsa, o‘qituvchi darsda o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Henrici G., Claudia M.–Baltmannsweiler: Schneider. Verlag Hohengehren. 1996, -S. 126.
2. Kleppin K. Berlin/München: Langenscheidt. 2002, -S. 83.
3. Lohfert, Walter. Ismaning: Max-Hueber-Verlag. 1987, -s. 98.
4. Mikisova Eva. Fertigkeit Sprechen auf dem Kompetenzniveau B. Praga. 2008. 128 s.
5. Wolfgang B. Unterrichtssprache Deutsch. Hueber -Verlag. 1996, -S 110.